

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI VA AXBOROT XURUJLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti*

*yo'nalishi 102- hamda 104-guruh talabalari*

***Vohidjonova Ruxshona va Abdulazizova Mohinur***

*Ilmiy rahbarlar: Ahmedov Abdulhay*

***Jabborova Sayyora***

**ANNOTATSIYA :** *Ushbu maqola ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi ekanligi, oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligi haqida ma'lumot beradi. Qurolning yangi turi kashf qilindi – bu axborot hisoblanadi. Bunday qurol yordamida olib boriladigan information urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinishi, inernetdan foydalanish, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanadigan internet saytlar to'satdan paydo bo'lishi, ularga qarshi kurashish yo'llari haqida.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье показано что средства массовой информации являются важнейшим ,мощным и влиятельным инструментом идеологии информационных атак в последнее время фактически изменил отношение к войне.Открыт новый вид оружия- это информация и наделенность на душу использование интернета внезапное появление веб-сайтов ,используемых террористами в современном мире, и способы борьбы с ними.*

**ANNOTATION:** *The fact that the media is the most basic, powerful and influential ideological tool and the recent increase in information attacks, is a sign that attitudes toward war have changed and that new types of weapons have been invented. This weapon is information. Information wars with such weapons target the minds and hearts of people, the use of the Internet, the sudden*

*emergence of Internet sites used by terrorists in the world today, information attacks and ways to combat them.*

***Kalit so'zlar:*** *ommaviy axborot vositalari (televideniye, kompyuter, internet, telefon) axborot, terroristik tashkilotlar, feyk yangiliklar, axborot xurujlari.*

***Ключевые слова:*** *средства массовой информации (телевидение, компьютер, интернет, телефон), информация, террористические организации, фейковые новости информационные атаки.*

***Key words:*** *mass media (television, computer, internet, telephone), information, terrorist organizations, fake news, information attacks.*

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan rivojlanmoqda. Barcha sohalarda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratga aylangan. Bunday murakkab sharoitda hayot yangidan yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'ymoqda. Shu bilan birgalikda axborot texnologiyalarining mislsiz taraqqiyoti natijasida ommaviy axborot vositalari (OAV) inson va jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. OAVning roli nafaqat ma'lumot yetkazib berish, balki madaniy qadriyatlarni shakllantirish, jamiyatni birlashtirish yoki bo'linishiga olib keladigan kuch sifatida ham e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada OAVning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, axborot xurujlarining xususiyatlari va ularga qarshi kurash choralari haqida.

Ommaviy axborot vositalari insonlarga kundalik hayotlarida zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy axborotlarni yetkazib beradi. Ular orqali jamiyat a'zolari dunyodagi voqealar, davlat siyosati va xalqaro jarayonlar haqida xabardor bo'lib boradi. Masalan, tabiiy ofatlar yoki favqulodda holatlar haqida tezkor ma'lumot yetkazish orqali ommaviy axborot vositalari hayotni saqlab qolish va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalari yosh avlodga ta'lim berish va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi. Ilm-fan, tarix va texnologiyaga oid hujjatli filmlar, targ'ibot dasturlari va

kitoblar orqali jamiyatda o'qimishlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, televideniyaedagi bilimdonlik shoulari yoki o'qituvchilar uchun metodik manbalar o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadiyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat – axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarni to'xtatish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq.

Ommaviy axborot vositalari ayrim hollarda noto'g'ri axborot tarqatish vositasi sifatida foydalaniladi. Soxta xabarlar orqali jamiyatda noto'g'ri tasavvur shakllantirilishi yoki odamlar turli maqsadlar yo'lida manipulyatsiya qilinishi mumkin. Ba'zan OAV orqali milliy madaniyatga zid bo'lgan tarkib tarqalib, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ba'zi filmlar va reklamalarda zo'ravonlik yoki iste'molchilarni haddan tashqari iste'molga undovchi g'oyalar ilgari suriladi. Doimiy ravishda salbiy yangiliklarni tomosha qilish inson ruhiy holatiga salbiy ta'sir korsatadi. Bu holat odamlarda xavotir hissini oshirib, ijtimoiy passivlikka olib kelishi mumkin. OAV, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini buzishi mumkin. Maxfiy ma'lumotlarning tarqalishi insonlarning huquq va erkinliklarini cheklaydi.

O'zbekistonda 2024- yilga kelib internet foydalanuvchilari soni 25 milliondan oshdi. Ijtimoiy tarmoqlarning, ayniqsa, yosh avlod uchun ma'lumot olish va muloqot vositasi sifatida keng qo'llanilishi ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi ta'sirini kuchaytirmoqda.

Axborot xurujlari va dezinformatsiya global muammo bo'lib, bu holat O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. 2023-2024- yillarda soxta yangiliklarga qarshi kurashish uchun maxsus qonunlar va nazorat tizimlari joriy etildi.

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ong va qaror qabul qilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Bu vositalar fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshirishda va jamiyatni turli ijtimoiy muammolar haqida xabardor qilishda muhim ahamiyatga ega.

Axborot xurujlari – bu davlatlar, tashkilotlar yoki alohida shaxslar tomonidan maqsadli ravishda noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlarni tarqatish orqali boshqalarning xatti- harakatlariga ta'sir o'tkazishga qaratilgan jarayondir. Bu xurujlar zamonaviy dunyoning kata muammolaridan biri hisoblanadi. Quyida ularning asosiy shakllari va oqibatlarini keltirilgan. Ular: 1. Feyk yangiliklar – soxta ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlari orqali tez tarqaladi. Bu o'z navbatida, odamlarning noto'g'ri qaror qabul qilishiga olib keladi. 2. Propaganda va mafkuraviy ta'sir – ma'lum bir davlat yoki guruh tomonidan ilgari surilayotgan mafkura orqali jamiyat boshqariladi. 3. Kiberhujumlar – dasturlar yoki internet tizimlariga hujum qilish orqali maxfiy axborotni oshkor qilish yoki buzib korsatish hollari ko'p uchramoqda.

Axborot xurujlariga qarshi kurash usullari haqida. 1. Axborot savodxonligi – har bir fuqaro ishonchli manbalarni tanlash va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. O'quv kurslari va targ'ibot kompaniyalari bu borada muhim ahamiyatga ega. 2. Huquqiy tartibga solish – axborot xurujlariga qarshi maxsus qonunlar qabul qilinishi va ularning ijrosini ta'minlash zarur. 3. Texnologik himoya – zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt yordamida noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlash va ularni tarqatishning oldini olish mumkin.

Bugungi kunda dunyoda axborot urushlari kuchayib bormoqda, bunda, inson ongini manipulyatsiya qilish asosiy nishon hisoblanadi. Masalan, terroristlar faoliyatini targ'ib qiluvchi 7000 dan ortiq veb-sayt mavjud bo'lib, ular

orqali g'oyaviy xurujlar uyushtiriladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'ylab internet foydalanuvchilarining 10 foizi qaramlikka chalingan. Shuningdek, o'smirlarning 42 foizi onlayn pornografiya ta'sirida tushishi aniqlangan, bu esa axloqiy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri va chalg'ituvchi ma'lumotlar ko'paydi. Masalan, Argentinada saylovlar davomida AI yordamida yaratilgan soxta tasvirlar va Slovakiyada ovoz yozuvvari saylov jarayoniga ta'sir ko'rsatgan. AQSHda esa respondentlarning 58% AI noto'g'ri ma'lumot tarqatishni kuchaytirishi mumkinligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda atigi 40 foiz odam ommaviy axborot vositalariga ishonadi. Eng ishonchli davlatlardan biri Finlandiya bo'lib, ishonch darajasi 69 foizni tashkil qiladi, past darajalar esa AQSH (32%) va Gretsiyada (23%) kuzatilmoqda. Ishonchlilik ko'proq aniqlik, xolislik va ochiqlikka bog'liq bo'lib, auditoriya doimiy ravishda axborotning adolatliligi va shaffofligini talab qilmoqda.

O'zbekistonda davlat organlari va OAV hamkorligi rivojlanayotgan bo'lsa-da, hali muvofiqlashtirish masalalarida qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Ayrim rahbarlar matbuotning ahamiyatini yetarlicha anglamaydi, bu esa axborot erkinligi va sifatiga ta'sir qiladi.

Ommaviy axborot vositalari saylov jarayonida kata rol o'ynaydi. Ular nafaqat nomzodlar haqida axborot berish, balki jamoatchilik e'tiborini muhim masalalarga qaratish orqali saylov natijalariga ta'sir o'tkazadi. Media egaligi va moliyalashtirishning saylov adolatliligiga ta'siri haqida ham ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bu ko'pincha jamoatchilik fikrini shakllantirishda kata rol o'ynaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali noto'g'ri axborot tarqatish va soxta ma'lumotlar kengaymoqda. Bu holat nafaqat jamoatchilik fikrini noto'g'ri shakllantiradi, balki ijtimoiy birlikka ham xavf tug'diradi. Ayniqsa, saylovlar va boshqa ijtimoiy voqealarda bunday xurujlarning ta'siri oshmoqda.

Raqamli asrda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish uchun axborot va media savodxonligini rivojlantirishi muhim. Bu jamoatchilikni media manipulyatsiyasi va soxta ma'lumotlardan himoya qilishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalarini moliyalashtirish usullari media kontenti va uning neytralligiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, tijorat manfaatlari yoki siyosiy bog'liqliklar tufayli ayrim mavzular bir tomonlama yoritilishi ehtimoli bor.

Ijtimoiy tarmoqlar va OTT platformalari kabi yangi media shakllari nafaqat axborot yetkazish, balki madaniy almashinuv va ko'ngilochar imkoniyatlarni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Ammo ular bilan birga maxfiylik va kiberxavfsizlik muammolari ham yuzaga kelmoqda.

Raqamli yangiliklarga qiziqish asta-sekin kamaymoqda. Ko'plab davlatlarda yangiliklarga bo'lgan yuqori qiziqish darajasi oxirgi o'n yillikda yarmiga qisqargan. Auditoriyaning qiziqishi, yangiliklarni o'qish odatlari va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib bormoqda.

Informatsion xurujlar uyushtirish uchun u qadar mehnat, harakat, xarajat talab etilmaydi. Zamonaviy OAV, televideniye, kompyuter, internet, telefon va boshqa vositalar, insonlar, ayniqsa, yoshlarning milliyligi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yubormoqda. Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Bugungi kunda 2 milliarddan ortiq kishilar internetdan foydalanadi.

50 millionlik auditoriyaga erishib, ommalashish uchun radioga 38 yil, televideniye 13 yil, kabel televideniye 10 yil kerak bo'lgan bo'lsa, bu bosqichni internet 5 yilda bosib o'tadi.

2024-yilda sun'iy intellekt (AI) axborot vositalariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. AI asboblari yordamida tezkor, o'zgacha va ko'proq moslashtirilgan kontent yaratish imkoniyatlari kengayadi. Biroq, bu texnologiyalar noto'g'ri ma'lumotlar va "deepfake"lar tarqalishiga olib kelmoqda, ayniqsa, saylovlar yoki xalqaro inqirozlarda propagandistik maqsadlarda foydalanilmoqda.



Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganini quyidagi raqamlardan bilib olish mumkin: 2000-2012 yilgacha dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 9,6 barobarga oshib, 2,4 milliard kishiga yetdi. Mobil aloqa abonentlari esa 13,4 barobarga oshib , 6,7 milliardni tashkil etadi. Mazkur o‘smirlarning 68% har kuni kimgadir SMS xabar jo‘natadi, 51% ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30% elektron pochtdan foydalanadi. Ayni vaqtda virtual olamda 600 mln ga yaqin internet saytlar mavjud bo‘lib, har oyda o‘rtacha 201,4 trln videorolik ko‘rib chiqiladi, har kuni 144 mlrd. Elektron maktub jo‘natiladi.

Ko‘pgina internet foydalanuvchilari mobil qurilmalar yordamida internetga kirishni afzal ko‘rishadi. 2018-yilda keng polosali ulanishning ulanish soni 5,3 milliardga yetdi. 2007-yildagi 268 millionga nisbatan. Dunyoda 100 kishiga to‘g‘ri keladigan ushbu turdagi aloqa ulushi 2007 yildagi 4% dan 2018-yilda 69,3 % gacha o‘tdi. 2018 yil oxiriga kelib 1,1 milliard simli internet aloqasi qayd etildi. 4 milliard internet foydalanuvchisi 2018- yil yanvar oyining oxirida biz “We Are Social “ global media-agentligi va “HootSuite” ijtimoiy media boshqaruv platformasini ishlab chiquvchisi hisobot chiqardi, unga ko‘ra dunyo bo‘ylab 4 milliarddan ortiq odam internetdan foydalanadi. Internetdan foydalanuvchilar soni 2018 yil oxiriga kelib 4,021 milliardni tashkil etdi. Bu 2017 yilning shu davriga nisbatan 7% ga ko‘p. Aholining keng qatlamlari foydalanishi mumkin bo‘lgan smartfonlar va mobil aloqaning tarif rejaları narxlarining pasayishi tufayli yangi foydalanuvchilarning aksariyati tarmoqda paydo bo‘ldi. 2017- yilda 200 milliondan ortiq kishi birinchi marta mobil qurilmani sotib oldi. Shunday qilib dunyo aholisining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i mobil telefonlarni sotib olgan. Foydalanuvchilar soni mobil telefonlar 2018-yilda bu 5,175 milliard kishini tashkil etadi, bu 2017 yilning shu davriga nisbatan 4 foizga ko‘proq.

Ozbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni -22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni -19 millionni tashkil etmoqda. Mamlakat bo‘yicha aholi punktlarining mobil aloqa bilan qamrab olinishi darajasi 97% , mobil Internet qamrovi esa 87% ni tashkil etadi. 26 mingga

yaqin ‘uz’ domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatga olingan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, shuni unutmash kerakki, ‘Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo’naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.<sup>1</sup> Mutaxassislar ma’lumotiga ko‘ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o‘yinlarining 49% sezilarli darajada zo‘ravonlik va yovuzlik ko‘rinishiga ega.

Yolg‘on xabarlar jamiyatda xavotirli darajada keng tarqalmoqda, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda. Ular jamoatchilik fikriga, saylov natijalariga va siyosiy qarashlarga ta’sir qiladi. Tadqiqotlar yolg‘on xabarlar haqiqatga qaraganda tezroq tarqalishini va hissiyotlarni qo‘zg‘atish orqali odamlar ongida chuqurroq o‘rnatilishini ko‘rsatgan. 2024-yilgi AQSH saylovlari davomida yolg‘on videolar va xabarlar siyosiy kompaniyalar kontekstida ko‘plab noto‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirdi. Bu kabi disinformatsiya AI vositalari yordamida yanada osonlashtirilgan.

Yolg‘on xabarlar va noto‘g‘ri ma’lumotlar jamoatchilikning an’anaviy OAVlarga bo‘lgan ishonchini susaytirib, demokratik jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat saylovlardagi qarorlarni noto‘g‘ri shakllantirish, jamiyatda qutblanishni kuchaytirish va ijtimoiy nizolarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlar filtrlari odamlarni o‘z fikr-mulohazalarini tasdiqlovchi axborot oqimiga yo’naltiradi. Bu esa jamiyatda qutblanishni kuchaytiradi. Media reklama orqali korxonalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, yaxshi ishlab chiqilgan reklama kompaniyalari iste’molchilarning 70% ni sotib qarorida ta’sirlantiradi. Raqamli platformalar orqali kichik bizneslar global bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.

Jamiyatdagi muammolarni kamaytirish uchun axborot savodxonligi oshirilishi kerak: maktablarda axborot va media savodxonligi bo‘yicha maxsus



darslar joriy etilishi global dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Faktlarni tekshirish tashkilotlari, masalan, “FactCheck” kabi loyihalar yolg‘on xabarlarni aniqlash va ularning tarqalishini cheklashga yordam bermoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xalqlarning madaniyati, tili va qadriyatlari haqida bilib olish osonlashmoqda. Ba’zi tadqiqotlarda internet orqali begona madaniyatning agressiv kirib kelishi milliy qadriyatlarga putur yetkazishi mumkinligi qayd etilgan.

“Elektron hukumat” tizimi orqali axborotlarni tezkor yetkazib berishning yo‘lga qo‘yilishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirdi. Shu bilan birga, axborot madaniyatini oshirish va soxta xabarlarni aniqlash bo‘yicha tadbirlar tashkil etilmoqda. Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o‘ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma’lumolarga ko‘ra , dunyo bo‘yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 % insonlar unga bog‘lanib qolgan.

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to’sqinlik qilish maqsadida davlat va jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish, mol-mulk musodara qilinish, 10-yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.<sup>ii</sup>

O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonunining 5- moddasi. “Din davlatdan ajratilganligi”. Terrorizm , narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar va boshqalarning faoliyati man etiladi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o‘tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiqlanadi.<sup>iii</sup>

Ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va mobil messenjerlarda e’lon qilinayotgan aholining keng qatlamlari fikriga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’lumotlarning doimiy monitoringini amalga

oshirilishi hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlariga munosabat bildirishi uchun ularga yuborilishi.<sup>iv</sup>

Hayotimizdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchadan yangicha ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishini talab etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, milliy matbuotimiz xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi, kitob savdosi, obuna masalalarida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, ochiqlik va sog'lom raqobat muhitida ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'p ishlashimiz kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" bayram tabrigidagi nutqi. T.-2019.
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.-2008.
3. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat Kodeksi "-1994.
- 4.O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonuni. T.-1998.
- 5.Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (Manba: uza.uz)-2019.
- 6.Jabborova, S., Erkinova, I., & Shokirova, Z. (2024). VIRTUAL O'YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI. ILM-FAN VA TA'LIM, (6 (21)).
- 7.Jabborova, S., Mirzadavlatova, U., & Kozimova, G. (2024). TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA AXBOROTNING O'RNI VA AHAMIYATI. ILM-FAN VA TA'LIM, (6 (21)).
- 8.Jabborova, S., Ismatillayeva, I., Fozilova, R., & Sultonboyev, A. (2024). TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING ISTIQBOLLARI. ILM-FAN VA TA'LIM, (6 (21)).
- 9.Jabborova, S., Daminjonova, S., Ismoilova, G., & Mamatqodirova, M. (2024). AXBOROTNING INSON HAYOTIGA TA'SIRI. ILM-FAN VA TA'LIM, (6 (21)).

10. Jabborova, S., Olimjanova, H., & Shodmonova, S. (2024). INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH-DAVR TALABI. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
- Bahodir o'g'li, V. S. (2024). YURTIMIZDA ARABLAR BOSQINI VA ISLOM DININING KIRIB KELISHI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(10), 40-44.
11. Asadbek, M., & Davronbek, I. (2023). O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING KAFOLATI. *Ustozlar uchun*, 24(1), 204-207.
12. Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 29(4), 115-120.
13. Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI, METODLARI VA TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(7), 102-110.

---

<sup>ii</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: -2008.

<sup>iii</sup> O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat Kodeksi": -1994.

<sup>iv</sup> O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tog'risidagi qonuni. T. -1998.

<sup>v</sup> Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (Manba: uza.uz)-2019.